



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

O‘zbekistonda Investitsiyaviy Muhitni Takomillashtirish Va Uning Iqtisodiy O‘Sishga Ta’siri

Amirov Nurislom Suvanovich

Tashkent International University Biznes va innovatsion ta'lim fakulteti dekan muovini
nursuvanovich@gmail.com

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida investitsiyaviy muhitni takomillashtirish muhim ustuvorliklardan biriga aylangan. Global raqobat va iqtisodiy integratsiya sharoitida har bir davlat o‘zining investitsiya jozibadorligini oshirish orqali iqtisodiy o‘shishni jadallashtirishga harakat qilmoqda. Investitsiya muhiti deganda mamlakatda investitsiyalarni jalb qilishga va amalga oshirishga oid barcha siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va institutsional omillar yig‘indisi tushuniladi. Bu omillar orasida siyosiy barqarorlik, xususiy mulk daxlsizligi, huquqiy kafolatlar, moliyaviy tizimning rivojlanganligi, soliq va bojxona tizimlarining soddaligi, shuningdek, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan institutsional qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar aynan shu omillarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, so‘nggi yillarda mamlakatning xalqaro investitsion reytinglaridagi o‘rnini sezilarli darajada yaxshilab, xorijiy investorlar uchun ishonchli va barqaror hamkor sifatidagi imijini mustahkamladi. Ayniqsa, “Yagona darcha” tamoyili asosida investorlarga xizmat ko‘rsatish tizimining joriy etilishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengaytirilishi, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalarining faoliyati va infratuzilmaviy loyihalarga yo‘naltirilgan yirik kapital kiritmalar bu boradagi amaliy yondashuvlarning namunasidir. Shu bilan birga, investitsiyalarni milliy iqtisodiy o‘shishning bevosita harakatlantiruvchi omili sifatida qaralishi ularning sifat va samaradorligiga e‘tibor qaratishni talab qiladi. Ya‘ni, faqat sarmoya hajmini oshirish emas, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirish, innovatsion loyihalarga kiritish, tarmoqlararo muvozanatni ta‘minlash, ijtimoiy infratuzilma, raqamli iqtisodiyot va ekologik barqarorlikni ko‘zlagan strategik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tezis aynan shunday sharoitda shakllanayotgan zamonaviy investitsiyaviy muhitning holatini tahlil qilish, uning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini baholash hamda istiqbolli yo‘nalishlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modeli doirasidagi strategik islohotlarining amaliy samaralarini ochib beradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda investitsiyaviy muhitni takomillashtirish jarayonlari va uning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini o‘rganishda tizimli va kompleks yondashuv asos qilib olindi. Ilmiy tahlil davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: birinchidan, taqqoslama tahlil metodi orqali

O‘zbekistonning investitsiyaviy ko‘rsatkichlari boshqa rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirildi; ikkinchidan, statistik tahlil orqali 2017–2024-yillar oralig‘ida investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari va yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik (korelyatsiya) aniqlashtirildi. Shuningdek, kontent-tahlil usuli asosida hukumat qarorlari, Prezident farmonlari, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi va xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, UNCTAD, OECD) hisobotlari o‘rganildi. Empirik yondashuv doirasida investitsiya siyosatining amaliy samaradorligini baholash uchun yirik investitsion loyihalar misolida tarmoqlar kesimida tahlillar olib borildi. Metodologik asos sifatida iqtisodiy xavfsizlik, raqobatbardoshlik, investitsion risklarni baholash nazariyalari va institutsional yondashuvlar olindi. Ushbu yondashuvlar yordamida investitsiyalarning iqtisodiy o‘shishga bevosita va bilvosita ta’siri ko‘rsatkichlari tizimlashtirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos yaratildi.

Tahlil va muhokama

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan investitsiyaviy islohotlar iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishida asosiy drayverlardan biriga aylanmoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2017–2024-yillar oralig‘ida mamlakatda sarmoya jalb etish bo‘yicha faoliyat tubdan faollashgan, bu esa iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga bevosita va barqaror ta’sir ko‘rsatgan. Yalpi investitsiyalar hajmining muttasil o‘shib borishi, xususan, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan mablag‘lar salmog‘ining sezilarli darajada oshgani YAIM ko‘rsatkichlariga ham ijobiy ta’sir o‘tkazgan. Statistik korelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, investitsiyalar hajmi bilan iqtisodiy o‘shish o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu holat sarmoyaning iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishdagi strategik rolini tasdiqlaydi. Ayniqsa, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi, texnologik modernizatsiya jarayonlari, transport va logistika infratuzilmasining kengaytirilishi investitsion faollik orqali amalga oshirilgan eng muhim tarkibiy o‘zgarishlar qatoriga kiradi.

Xorijiy investitsiyalar oqimining tahlili ularning tarkibi va yo‘nalishlarida muhim sifat o‘zgarishlari ro‘y berganini ko‘rsatadi. Ilgari asosan tabiiy resurslarga asoslangan loyihalarga qaratilgan xorijiy investitsiyalar endilikda innovatsion va yuqori texnologiyali sohalarga, jumladan, axborot texnologiyalari, elektroenergetika, farmatsevtika va avtomobil sanoatiga yo‘naltirilmog‘da. Bu holat O‘zbekistonning investitsiyaviy imijining xalqaro miqyosda ijobiy tus olayotganini, shuningdek, hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli strategiyalarning samarasini ko‘rsatadi. “Yagona darcha” tamoyiliga asoslangan xizmat ko‘rsatish tizimi, soliq va bojxona imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklarning faoliyati xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratib, investitsiya oqimlarini diversifikatsiyalash imkonini bermog‘da. Erkin iqtisodiy zonalaridagi faoliyat faollashgan sari eksport salohiyati ham ortib bormog‘da, bu esa mamlakatning global iqtisodiy integratsiyada faol ishtirokini kuchaytirmog‘da.

Biroq, investitsiyaviy muhitning rivojlanishida ijobiy tendensiyalar bilan birga, muayyan tizimli muammolar ham mavjud. Sud-huquq tizimining hali to‘liq mustaqillikka erishmaganligi, ayrim hududlardagi byurokratik to‘siqlar, ayrim hollarda investorlar manfaatlarining to‘liq himoya qilinmasligi kabi omillar sarmoya jalb qilish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Investitsiyaviy xavfsizlikni ta’minlash uchun bitimlar ijrosi ustidan monitoring mexanizmlarining kuchaytirilishi, investorlar bilan davlat o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarning shaffofligi va kafolatlanganligi ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Shuningdek, ayrim tarmoqlarda sarmoya oqimlari haddan tashqari yuqori bo‘lib, boshqa muhim ijtimoiy sohalarga (ta’lim, sog‘liqni saqlash, ekologiya) yetarli darajada yo‘naltirilmaslik muammosi ham kuzatilmoqda. Bu esa investitsiyaviy siyosatda tarmoqlararo muvozanatni ta’minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Hududiy kesimda esa investitsiyalarning notekis taqsimlanishi kuzatilmoqda. Poytaxt va yirik shaharlarga nisbatan chekka hududlarda infratuzilmaning zaifligi, kadrlar salohiyatining pastligi va axborotga kirish imkoniyatlarining cheklangani investitsiyaviy jozibadorlikni pasaytiruvchi omillar bo‘lib qolmoqda. Shu sababli hududiy investitsion strategiyalar ishlab chiqilishi, mahalliy hokimiyatlar va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirilishi, hududlar uchun maxsus soliq va infratuzilmaviy imtiyozlar joriy etilishi tavsiya etiladi. Aynan shunday yondashuv orqali

O‘zbekiston iqtisodiyotida nafaqat umumiy o‘shish, balki barqaror va inklyuziv rivojlanishga erishish mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonda investitsiyaviy muhitni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan siyosat ijobiy natijalar bermoqda. Bu jarayon milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarni sifati, tarmoqlararo muvozanat, hududiy tenglik va institutsional xavfsizlik kabi omillarga alohida e‘tibor qaratish zarur. Faqat hajm emas, balki strategik yo‘naltirilganlik, barqarorlik va innovatsion yechimlar asosida shakllangan sarmoya oqimlari O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlaydi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar doirasida investitsiyaviy muhitning takomillashuvi mamlakat iqtisodiy o‘shishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biriga aylanmoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar shuni ko‘rsatdiki, investitsiyalar hajmining oshishi, ularning tarkibiy sifati va strategik yo‘naltirilganligi iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Xususan, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining keskin ortishi, xorijiy sarmoyalarning innovatsion tarmoqlarga yo‘naltirilayotgani, hududiy va tarmoqlar kesimidagi investitsion faollikning oshishi O‘zbekiston iqtisodiy modelida sifatli o‘zgarishlar yuz berayotganini anglatadi. Investitsiyalar va YAIM o‘rtasida aniqlangan kuchli o‘zaro bog‘liqlik, hukumat tomonidan yaratilgan institutsional va huquqiy imkoniyatlar, "yagona darcha" tizimi, soliq imtiyozlari va erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati orqali sarmoyalar uchun qulay sharoitlar yaratilganini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, yuridik kafolatlarning zaifligi, ayrim idoraviy byurokratik to‘siqlar, investorlar manfaatlarini himoya qilishdagi muammolar, shuningdek, investitsiyalarning hududlararo nomutanosib taqsimlanishi kabi tizimli masalalar hali ham mavjud bo‘lib, bu borada kompleks yondashuvlar asosida chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Umuman olganda, O‘zbekistonda investitsiyaviy muhitni takomillashtirish iqtisodiy o‘shishning yangi bosqichini boshlab bergani holda, bu jarayonni chuqurlashtirish uchun investitsiyalarning nafaqat hajmiga, balki ularning sifati, samaradorligi, strategik yo‘naltirilganligi va barqarorligiga ustuvor e‘tibor qaratilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Prezident Sh. M. Mirziyoyev, *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”, Toshkent, 2023. [Online]. Available: <https://strategy.uz>
3. The World Bank, *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*, Washington, D.C.: World Bank Group, 2020.
4. UNCTAD, *World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All*, Geneva: United Nations, 2023.
5. OECD, *Investment Policy Reviews: Uzbekistan*, Paris: OECD Publishing, 2022.
6. M. Karimov and N. Sobirov, “Investitsiyaviy muhitni baholashda zamonaviy yondashuvlar”, *Iqtisodiyot va innovatsiyalar*, vol. 11, no. 2, pp. 45–52, 2023.
7. S. To‘xtayev, “Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o‘shish: O‘zbekiston tajribasi”, *TDIU Ilmiy axborotnomasi*, no. 4, pp. 23–30, 2022.